

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2023

6/2-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

6/2-сан 2023

декабрь

Шөлкемлестіріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендируі Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Мавлюда АЧИЛОВА
Нуриддин АЧИЛОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Мехри НАРБАШЕВА
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурулло МАРДОНОВ
Шахсанам МАТУПАЕВА

Лобар МУХТОРОВА
Камаладин МАТЯКУБОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Сайёра РАХМОНОВА
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулноз ТУРАЕВА
Гулмира ТОЖИБОЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Дилбар ҚАРШИЕВА
Вохид КАРАЕВ
Дилбар ҚОДИРОВА
Ризамат ШОДИЕВ
Абдушукур ШОҒҚОРОВ
Дилфуза ШАББАЗОВА
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ



Abdirasulov L.X. O'quvchilarga texnologik ta'lim darslarini o'qitishda atrof muhit muhofazasi tushunchalarini shakllantirish	191
Yusupova D.U. Talabalarining klinik tafakkurini rivojlantirishda simulyatsion yoki imitatsion metoddan foydalanishning afzalliklari	196
Nurullayeva G.O' Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar	201
Xamrayev N. Z. Rivojlangan davlatlar ta'limida kredit modul tizimini Bolonya tajribasi misolida joriy etish shakllari va bosqichlari	205
Djurayev I.I. Raqamli olamda masofaviy ta'limni rivojlantirish mexanizmlari	212
Turdaliyev S.M. Virtual texnologiyalarning imkoniyatlari	217
Ergasheva X.M. Oliy ta'lim muassalari ta'limi jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish zaruriyati	224
Artikova K. K. Kreativ yondashuv asosida o'quv va tarbiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari	230
Jo'rayev F. R. O'zbek folklori vositasida oilada milliy va ma'naviy tarbiyani shakllantirish	236
Mamadaliev K. Ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llashning dolzarbligi	242
Eshmurodov Sh.E. Kutubxona axborot tizimlarning rivojlashi tendensiyasi va imkoniyatlari	248
Zoirova L.X. Tibbiyot oliygohlarida "Radiatsion tibbiyot va texnologiyalar" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish	254
Chorshanbiyev Sh. E. Oliy ta'lim muassalarida talabalarining ekologik kompetensiyasini shakllantirishdagi metodik yondashuvlar	260
Narimbetova Z. A. Umumta'lim maktablarida geometriyani o'qitishning me'yoriy omillari	267
Razokova N.K. O'quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'zlashtirish darajasini oshirish	271
Xusnetdinov U. I. Ekologik ma'rifat-talaba yoshlarda ekologik madaniyat kompetensiyasini shakllantirish	275
Kuchkinov A. Yu., Rixsimboyeva N.D. Ekota'lim samaradorligini oshirishda steam integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi	283
Beketov N. A. Kasbiy mazmunli masalalarning sifatli ta'limdagi ahamiyati (matematika fanini o'rgatish misolida)	288
Nurgizarova Z.B. Zamonaviy kadrlar tayyorlash va adabiyot ta'limini o'rganishda yangi ped texnologiyalar	292
Suleymanova T.G. O'smirlarining kasb tanlash jarayonida tadbirkorlik faoliyatga yo'naltirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari	296
Байметов М.М. Педагогика олий таълим муассасаларида ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш	302
Аноркулова Г.М. Бўлажак технология ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлашнинг методик асослари	307
Кудайназаров А.К. Жамиятда инновацион жараёнлар ва инновациялардан фойдаланишга бўлган олимларнинг қизиқишлари	313
Salimova S.F., Amonova D.N. Biologiya ta'limini o'qitishda virtual laboratoriyani ishlab chiqishning didaktik ahamiyati	318
Yunusov M.M. "Sulfat kislota ishlab chiqarish" mavzusini rolli o'yinlar bilan o'qitish	326
Salimova S.F., Kalandarova D.S. Zoologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakasini oshirish yo'llarida virtual laboratoriya mashg'ulotlarining didaktik modeli	337
Niyozov A.K., Nurmurodova M.A. Ta'lim jarayonini tashkil etishda 4K – ta'limining o'rni	344
Қаҳҳаров А.А. Ўзлуксиз таълимда график фанларни ўқитишда талабаларнинг график компетенциясини ривожлантириш усуллари	352
Исхакова М.Р. Андрагогик ёндашув асосида мактабгача таълим ташкилотлари педагоглари малакасини ошириш жараёнини такомиллаштириш мазмуни	360
Инназаров М.А., Обидов А.Э. Инновацион ёндашув асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари ўқув-методик таъминотини такомиллаштириш	367
Halimov O'.H. Kompyuter grafikasidan foydalanib bo'lajak muhandislarning loyihalash kompetentligini rivojlantirish	373



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOMETRIYANI O'QITISHNING ME'YORIY OMILLARI

Narimbetova Z. A.

*Чирчиқ давлат педагогика университети
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), dotsent v.b.*

Tayanch so'zlar: ta'lim, maktab, fan, Geometriya, o'quv, bilim, o'quvchi, o'rganish, o'zlashtirish.

Ключевые слова: образование, школа, наука, Геометрия, учеба, знание, ученик, обучение, освоение.

Key words: education, school, science, Geometry, study, knowledge, student, learning, mastering.

Mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim tizimida STEAM xalqaro ta'lim dasturi va baholash standartlarini joriy etish asosida tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uug'un o'qitish orqali o'quvchilarni mustaqil hauotga tauuorlash, ularda tizimli tahlil hamda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalari belgilab berildi. Bu borada matematika turkumidagi fanlarni o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish orqali o'quvchi shaxsining matematik va geometrik kompetensiyalarini umumiy o'rta ta'lim bosqichida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 uillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston strategiyasida umumiy o'rta ta'lim tizimida matematika turkumiga kiruvchi fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish, uoshlarning matematik va geometrik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali mamlakatda ilm-fanga tauangan innovatsion iqtisodiyotni tarkib toptirish vazifalarini amalga oshirishga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da farovon hayot, inson qadrlanadigan jamiyat va xalqparvar davlatni barpo etishda ilm-fanga asoslanish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida Matematika turkumidagi, jumladan, Geometriya fanini o'qitishning metodikasini yangilab borish, rivojlantirish va bu jarayonga yangi asosdagi metodikalarni joriy etish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur



masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "2020-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida Matematika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligini va amaliy ahamiyatini oshirishning maqsadli Dasturi"da ham belgilangan. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitish metodikasini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning me'yoriy faktorlari tahliliga tortamiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitishning me'yoriy faktorlari deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- mazkur fanni o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablari, o'quv reja, dastur va darsliklari;
- ushbu fanni o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy metodlari hamda texnologiyalari;
- bu fanni o'qitish metodikasini rivojlantirish bo'yicha milliy va xalqaro ilmiy-tadqiqotchilik tajribalari;
- fanni o'qitish bo'yicha tajribali o'qituvchilarning individual metodlari.

Umuman, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablari xalqaro ta'lim dasturlari hamda standartlari darajasida ishlab chiqilmoqda. Bu boradagi tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar. Shu jihatdan bizning fikrimizcha, 10-11 sinflar Matematika turkumidagi o'quv fanlari, jumladan, Geometriya fani bo'yicha yangi davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini ishlab chiqishda quyidagi ikki muhim hujjatga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-sonli qarori bilan tasdiqlangan mazkur hujjatda malakalar ramkasi (qat'iy doirasi) belgilab qo'yilgan. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining yangisini yaratishda ushbu malaka talablari ramkasida belgilab qo'yilgan quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

1) bilimlar majmuini berish:

- taqdim etilayotgan ma'lumot va axborotlarning haqqoniyligi;
- taqdim etilayotgan bilimlarning innovatsiyaviyligi;
- nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligi.

2) mahorat va ko'nikmalar:

- kasb vazifalarini bajarishning ko'p variantga egaligi va ularning amaliyot bilan bog'liqligi;



- muayyan fan bo'yicha noaniqlik va murakkablikning muntazam bartaraf etib borilishi.

3) kompetensiyalar:

- mustaqil ijro intizomiga ega bo'lish;
- o'z bilimi va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish;
- ko'nikma va malakalarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarga asoslanish.

E'tibor berilsa, mazkur ko'rsatmalar yangidan shakllantiriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining negizlari sifatida qabul qilinishi mumkin.

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Mazkur qarorda Matematika turkumidagi, jumladan, Geometriya fanini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish uchun belgilanadigan davlat ta'lim standartlari va malaka talablari bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat bo'lib, Geometriya fanini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida aks etishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 10-11 sinflarda Geometriya fanini o'qitishda mavzular bo'yicha to'liq uzviylikni ta'minlash;
- ta'limning mazkur bosqichida Geometriya fani bo'yicha beriladigan o'quv materiallarining o'quvchilarning qulay o'zlashtirishi, qiziqish bilan munosabatda bo'lishi va mavzular bo'yicha aniq ko'nikmalarga ega bo'lishiga yo'naltirilishi;
- mazkur fanni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktabi va oliy ta'lim muassasasi hamkorligi mexanizmlariga tayanish;
- 10-11 sinflarda Geometriya fani vositasida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalari ko'lamini aniq belgilab qo'yish;
- ushbu fan bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholashning mutlaqo yangi tizimini ishlab chiqish.

Bularning barchasi Geometriya fani bo'yicha ishlab chiqiladigan yangi asosdagi davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini xalqaro ta'lim dasturlari talablari asosida yaratish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikai Xalq Ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.

2. Narimbetova Z.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // "Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio". Ilmiy-metodik jurnal. – Nukus. №1/3 (aprel). 2023.



3. Narimbetova Z.A. Geometriya fanini o'qitishning axborot-kommunikatsion masofaviy ta'lim metodi // "Ekonomika i sotsium". Ilmiy-metodik jurnal. – M., №12(91). 2021, 1125-1134 str.
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030" xalqaro dasturi. // WWW.ziynet.
5. <https://www.markaz.tdi.uz>
6. <https://t.me/milliymarkaz>
7. <https://www.uzedu.uz>

РЕЗЮМЕ

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Geometriya fanini o'qitishning me'yoriy faktorlari to'g'risida fikr yuritilgan va tavsiyalar bildirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются нормативные факторы преподавания геометрии в общеобразовательных школах и даются рекомендации.

SUMMARY

The article discusses the normative factors of teaching Geometry in general secondary schools and gives recommendations.